FALSAFA

UDK: 17:316.62.05, 502.7 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a21**

YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY JIHATLARI

ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ

PHILOSOPHICAL ASPECTS OF FORMING ECOLOGICAL CULTURE IN YOUTH

G‘ulomov Akramjon Baxromovich[1]

[1]G‘ulomov Akramjon Baxromovich — Farg‘ona davlat universiteti falsafa kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada ta’lim tizimida ekologik madaniyatning global, regional va lokal muammolarini bartaraf etish orqali jamiyat oldidagi ekologik xavf-xatarni bartaraf etish va rivojlanishning barqaror yo‘liga o‘tish konsepsiyasi bo‘yicha kishilik jamiyatida bir necha ming yilliklar davomida doimo o‘zgarib kelganligi takidlangan. Ilmiy yo‘nalishining asosiy ko‘rsatkichlari hisoblangan, tabiatdan foydalanish va mahsulot ishlab chiqarish miqdori, aholining soni, tabiiy resurslardan foydalanish ko‘lami, tabiatdagi antropogen bosim miqdori, ekologik va etnoekologik landshaft muvozanati kabi ko‘rsatkichlarni o‘zgarishini makon va zamonda nazorat qilish zarurati tahlil etilgan.

Аннотация

В статье подчеркивается концепция экологической культуры в системе образования для устранения глобальных, региональных и локальных проблем и перехода на устойчивый путь развития постоянно менялась в человеческом обществе на протяжении нескольких тысячелетий. Рассчитаны основные показатели научного направления, необходимость контроля за изменениями в пространстве и времени, такие как объемы природопользования и производства продукции, численность населения, масштабы природопользования, величина антропогенной нагрузки на природу проанализирован баланс экологического и этноэкологического ландшафта.

Abstract

In the article, it is emphasized that in the education system, the concept of eliminating the ecological danger in front of the society and transitioning to a sustainable path of development by eliminating the global, regional and local problems of ecological culture has been constantly changing in the human society for several thousand years.The main indicators of the scientific direction are the monitoring of changes in space and time, such as the use of nature and the amount of product production, the number of people, the scale of use of natural resources, the amount of anthropogenic pressure on nature, the balance of the ecological and ethno-ecological landscape necessity is analyzed.

Kalit so‘zlar: *tabiiy resurslar, makon va zamon, tarixiy yondashuv, fan-texnika, halokat, najot, Rim klubi, atrof-muhit, tolerantlilik tamoyili, ijtimoiy-siyosiy.*

Ключевые слова: *природные ресурсы, пространство и время, исторический подход, наука и техника, разрушение, спасение, Римский клуб, окружающая среда, принцип толерантности, социально-политический.*

Key words: *natural resources, space and time, historical approach, science and technology, destruction, salvation, Club of Rome, environment, principle of tolerance, socio-political.*

KIRISH

Insoniyat boshi uzra ikki xavf-xatar zarbasi muallaq turibdi. Bu — yadroviy va ekologik halokatlardir. Yangicha dunyoqarash esa ana shu ikki xavf-xatarni insoniyat tarixidan butunlay bartaraf etishga yo‘naltirilgan. Bu oxir-oqibatda insoniyatni o‘z-o‘zini halok etish muammosidan xolos etishi lozim. Yangi tafakkur — dunyoqarashning faolligi, kuchi va amaliy ahamiyati, uning o‘ziga xos jihatlari ham xuddi ana shunda ko‘rinadi. Zero, «inson o‘z taqdirini o‘z qo‘li, mehnati va qobiliyati, tinimsiz sa’y-harakati va sabr-toqati bilan yaratadi»[1]. Shu bilan birga barchasini o‘z qo‘li bilan barbod etadi ham.

Ekologik madaniyat murakkab va serqirra hodisa sifatida ijtimoiy hayotning barcha sohalariga daxldor. O‘z navbatida jamiyat hayotining har qanday sohasini ham ekologik madaniyatning rivojisiz yuksaltirish mushkul. Bunday holat ekologik madaniyatning ijtimoiy xususiyatini, rivojlanishining ijtimoiy belgilanganligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, ekologik madaniyatga konkret-tarixiy yondashuvgina uning mohiyatini to‘g‘ri tushunish imkonini beradi[2].

Ekologik madaniyatni tartibga solish vazifasi marosimlar, urf-odatlarda ham yorqin ko‘rinadi. Albatta, har qanday madaniyat normasi kishining ichki e’tiqodiga aylangan taqdirdagina uning faoliyatini tartibga soluvchi omil sifatida yuzaga chiqa oladi. Shuning uchun ham, biz aholining

ekologik madaniyat normalarini qay darajada o‘zlashtirganini ularning turli sharoitlarda o‘zlarini qanday tutishlariga qarab bilib olamiz. Demak, kishilarning faoliyati, muloqotini tartibga solish, turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni ma’lum normalarga bo‘ysundirish madaniyatning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Ekologik muammolarni bartaraf etish va ekologik madaniyatni shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon. Shu ma’noda ekologik madaniyat muammosining nazariy metodologiyasini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ekologik madaniyat tarixini ilmiy tahlil etishning yangi nazariy metodologiyasini ishlab chiqishda muhim vazifa sifatida quyidagilar e’tirof etilishi zarur.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

Bugun vujudga kelgan dramatik vaziyatda ikki muqobil imkoniyat mavjud: yoki halokat, yoki najot, gap bizning uni anglab yetishimizda» deb yozgan edi. Bunday fikrni «Rim klubi» a’zolari J.Forrester, D.Medouz, Y.Tinbergan, A.King va amerikalik olim R.Folk (1886-1958) va italiyalik faylasuf E.Severinyo, I.Baldauf[3] (1929-2018) Adib Xolid[4] ham bildiradilar. Umuman, iqtisodchi-ekolog mutaxassislar xulosasiga ko‘ra, aksariyat davlatlar, YAIMning 3-5 foizini tabiiy atrof-muhit muhofazasiga ajratadi. Uning miqdorini 5-7 foizga oshirish bilan ekologik vaziyat turg‘unligiga erishish mumkin. 7-10 foizga ko‘tarish esa, ekologik vaziyatni, nisbatan sog‘lomlashtirishga olib keladi. Bugungi kunda ekologik vaziyatning yomonlashayotganligini ushbu statistik ma’mulotlar xaqida shu kabi olimlar tadqiqotlarida e’tibor qaratilgan.

NATIJALAR VA MUXOKAMA

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan insonlarning atrof-muhitga bo‘lgan ta’siri o‘sib boradi. Inson tabiat bilan, ya’ni o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda yer osti va yer usti boyliklari bilan o‘zaro muloqotda bo‘ladi. Ekologik muammolar kengayib ularni hal etish dolzarb vazifa bo‘lib qolgan hozirgi davrda bu muammolarni hal qilishda insoniyat uchun asosan ekologik ong va ekologik madaniyatning o‘rni beqiyosdir. Albatta, ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijasida, turli soha ilm va texnologiyalarining taraqqiyoti, yangi energiya manbalari va kimyoviy moddalarning paydo bo‘lishi, tabiiy resurslardan yovuzlarcha foydalanish natijasida havo, suv ifloslanadi, insoniyatni boquvchi yer yaroqsiz holga kelib, oqibatda uni yashash muhitidan mahrum etadi. Hozirgi davrda insoniyat, u qanday havf qarshisida kelib qolganligini tushunib yetdi, atrof-muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi. Inson faoliyati ta’siri natijasida atrof muhitga ancha sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermokda. Bular asosan hozirgi kunda mavjud bo‘lgan ekologik havfizlik klassifikatsiyasida bo‘lgan: umumsayyoraviy, mintaqaviy, milliy, lokal ekologik havfsizliklar mamlakatimiz xududini ham chetlab o‘tmadi.

Bunday global ekologik maummolarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- azon qatlami muammolari, ya’ni yemirilishi;
- iqlimning o‘zgarishi;
- cho‘llanish;
- toza ichimlik suvi tanqisligi;
- orol dengizi muammosi;
- hayvonot va o‘simlik dunyosi turlarining qisqarib borishi;
- o‘simlik dunyosining noqonuniy kesilib borishi;
- yer degradatsiyasi;
- suv resurslari tanqisligi;
- atmosfera ifloslanishi shular jumlasidandir.

Ekologik fojialarni bu darajadagi jadallashib borishida ekologik ong va ekologik madaniyatning yetishmasligi, tabiatga oqilona ekologik munosabatning yo‘qolib borishi sifatida keltirish mumkin. Ekologik madaniyatni shakllantirishda, ekologik ong va dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda bir qator yutuqlarga erishilayotgan bir vaqtda ushbu sohani singdirishda muhim o‘rin tutadigan maktab tarbiyasiga, o‘rta va oliy ta’lim muassasalariga e’tibor qaratishimiz lozim.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda boshqaruvning o‘rni faqatgina Davlat xizmati bilangina emas, balki jamoatchilik rolini oshirish bugungi «Demokratik, huquqiy davlat qurish» yo‘lidagi ekologik bilimlarni targ‘ibot qilish, aholining ekologik saviyasini ko‘tarish borasida bir muncha ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin shunga qaramay bu sohada bir qator kamchiliklarning borligi ham sir emas.

Insoniyat qadimgi zamonlardanoq tabiatning bir qismi ekanligini anglab, u o‘zining xarakatlari bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni ongli ravishda boshqariladiganligini xis qilib

kelgan. Lekin insoniyat tabiatdan foydalanib uni qayta tiklanishiga e'tibor qaratilishini kech bo'lsada tushunib yetdi. Insonlar madaniyati shakllanib rivojlana borar ekan, tabiat in'omlari bo'lmish o'simlik va xayvonot dunyosi turlarini bir qanchasini madaniylashtirib, o'zlari uchun foydalanishni amalga oshirish jarayoni hozirda ham davom etayotgan jarayondir.

XULOSA

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani ekologik madaniyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor meyorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarining taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda global ekologik muammolarni kuchayib borishi va ekologik inqiroz xolatini yuzaga kelmasligi uchun global ekologik nazoratni yo'lga qo'yish va ekologik mas'uliyatni shakllantirish va to'xtatishning imkoni bor[5]. Har qanday jamiyatning mavjudlik holati muayyan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning nazorat tizimini taqozo qilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон. –Б, 176.

2. В.А.Дерябин, ФарафонтоваЕ. П.Экология : учебное пособие. Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2016. - С. 115.

3. Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.

4. Baldauf Ingeborg. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams, New Ser. Vol.41, Issue 1. (Mar., 2001).

5. https://kun.uz. БМТ бош котиби инсониятни «табиатга қарши уруш олиб бормасликка» чақирди. 23:07 / 01.12.2019